

## INSULT KASSALIGINING PROFILAKTIKASI VA UNING REABILITATSIYADAGI AHAMIYATI

**Amirova Sabrina Baxromovna**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti,*

*Davolash ishi 23/13 guruh talabasi*

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Tibbiyot fakulteti, katta o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA.** Insult bosh miyada qon aylanishi to’satdan bûzilib, miya to‘qimalarining zararlanishi va bajarayotgan ishining buzilishi, ya’ni funksiyasining buzilishi sodir bo‘ladigan patologik holatdir. Ushbu maqolada insult kasalligining profilaktikasi va uning reabilitatsiyadagi ahamiyati muhokama qilinadi.

**Kalit so’zlar:** insult, ishemik insult, gemorragik insult, reabilitatsiya.

### ПРОФИЛАКТИКА ИНСУЛЬТА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В РЕАБИЛИТАЦИИ

**Амираова Сабрина Бахромовна**

**Кенжаев Ёдгор Маматкулович**

*Медицинский факультет Термезского университета экономики и сервиса, студент группы 23/13 направления «Лечебное дело»*

*Медицинский факультет Термезского университета экономики и сервиса, старший преподаватель*

**АННОТАЦИЯ.** Инсульт – это патологическое состояние, при котором внезапное нарушение кровообращения в головном мозге приводит к повреждению тканей мозга и нарушению его функций. В данной статье обсуждаются профилактика инсульта и его значение в реабилитации.

**Ключевые слова:** инсульт, ишемический инсульт, геморрагический инсульт, реабилитация.

### PREVENTION OF STROKE AND ITS IMPORTANCE IN REHABILITATION

**Amirova Sabrina Baxromovna**

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich**

*Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service, student of the 23/13 group, "General Medicine" program  
Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service, Senior Lecturer*

## **ABSTRACT**

Stroke is a pathological condition characterized by sudden disruption of blood circulation in the brain, leading to tissue damage and impairment of its functions. This article discusses stroke prevention and its importance in rehabilitation.

**Keywords:** stroke, ischemic stroke, hemorrhagic stroke, rehabilitation.

## **MUAMMONING DOLZARBLIGI**

Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili kuzatiladigan birlamchi insultlar soni 15 milliondan oshadi. Bu ko'rsatkich AQSHda yiliga 750 000, Rossiyada 500 000, Ukrainada 100 000, O'zbekistonda 60 000 ga teng. Dunyoda o'lim sabablari bo'yicha yurak ishemik kasalligi birinchi, insult esa ikkinchi o'rinda turadi. Rossiyada 100 000 aholiga 175 nafar bemor insultdan o'lmoqda.

Ishemik insult gemorragik insultlarga qaraganda 5-6 barobar ko'p uchraydi: ishemik insultlar barcha insultlarning 80-85%, gemorragik insultlar esa 15-20% ni tashkil qiladi.

## **TADQIQOT MAQSADI**

Insult kasalligining profilaktikasi va uning rivojlanishini sekinlashtirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisini ishlab chiqish.

### **Tadqiqot materiali va uslublari**

Tadqiqot davomida milliy va xalqaro adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va mahalliy tibbiy hisobotlardan statistik ma'lumotlar yig'ildi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

### **Insult xavfini oshiruvchi omillar:**

Insult rivojlanishiga sabab bo'luvchi xavf omillari ikki turga bo'linadi:

1. O'zgartirib bo'lmaydigan omillarga: Yosh, Jins, Nasliy kelib chiquvchi omillar.
2. O'zgartirish mumkin bo'lgan omillar: Chekish, Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, Gipodinamiya, Semizlik, Psixoemotsional stress, Depressiya, Arterial gipertensiya, Karotid stenoz, Hilpillovchi aritmiya, Gipergomosisteinemyalar kabi.

Hudud	Har yilgi birlamchi insultlar soni	Insultdan o'lim (%)
AQSH	750,000	15
Rossiya	500,000	17.5
Ukraina	100,000	16
O'zbekiston	60,000	14

**1-jadval. Kasallikning dunyo bo'yicha uchrash ko'rsatkichlari tahlili.**

Tur	Barcha insultlarga nisbatan ulushi (%)
Ishemik insult	80–85
Gemorragik insult	15–20

**2-jadval. Kasallik chalinishni uchrashining o'zaro nisbati.**

Xavf omili	Taqsimlanishi (%)
Qon bosimining yuqoriligi	60
Semizlik	25
Chekish	30
Gipodinamika	40

**3-jadval. Kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarning foizlardagi nisbati.**  
Bitta odamda xavf omillari soni oshgan sari insult xavfi ham oshib boradi.

### Profilaktika yo‘nalishlari:

1. **Sog‘lom turmush tarzini olib borish:**
  - Jismoniy faollik: muntazam jismoniy mashqlar.
  - Sog‘lom ovqatlanish: tuz va yog‘ miqdorini cheklash.
  - Tana og‘irligini nazorat qilish: semizlikning oldini olish.
2. **Qon bosimini nazorat qilish:** Yuqori qon bosimi – insultning asosiy xavf omili.
3. **Diabetni boshqarish:** Qon shakarini me‘yorida ushlab turish.
4. **Chekishdan voz kechish:** Chekish miya qon aylanishiga zarar keltiradi.
5. **Stressni boshqarish:** Meditatsiya yoki boshqa dam olish usullaridan foydalanish.

### Reabilitatsiya ahamiyati:

Reabilitatsiya bemorning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi:

1. Jismoniy funksiyalarni tiklash: mushak kuchini tiklash.
2. Kundalik hayotda mustaqillik: o‘z-o‘zini parvarish qilish.
3. Nutq va til ko‘nikmalarini tiklash: logopedik terapiya yordamida.
4. Ruhiy holatni yaxshilash: depressiyadan chiqish.
5. Qayta insult xavfini kamaytirish: turmush tarzini yaxshilash.

## XULOSA

Insultdan saqlanish uchun sog‘lom turmush tarzini yuritish, xavf omillarini boshqarish, qon bosimini nazorat qilish va tibbiy tekshiruvlardan muntazam o’tish zarur. Reabilitatsiya insultdan keyingi tiklanish jarayonini tezlashtiradi va bemorning hayot sifatini yaxshilaydi.

### Adabiyotlar:

1. World Health Organization. (2022). "Global Health Estimates 2022."
2. American Heart Association. (2023). "Stroke Prevention Guidelines."
3. O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. (2024). "Insultdan profilaktika dasturi."
4. Gorelick, P. B., & Sacco, R. L. (2020). "Stroke Prevention in Clinical Practice."
5. Moskowitz, M. A., Lo, E. H., & Iadecola, C. (2019). "The Pathophysiology of Stroke."
6. Adams, H. P., et al. (2021). "Classification of Stroke Subtypes."
7. O‘zbekiston Respublikasi DSENM. (2023). "Insult epidemiologiyasi."
8. Smith, W. S., & Johnston, S. C. (2019). "Ischemic Stroke Therapy: Guidelines and Recommendations."

9. Caplan, L. R. (2020). "Management of Stroke Risk Factors."
- 10.UzMed Journal. (2024). "O'zbekistonda insult reabilitatsiyasi."
- 11.Kenjayev Y.M., Berdieva S.A., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. "Yurak bo'l macha va qorinchalari gipertrofiyasining elektrokardiografiya belgilari o'zgarishlarini tahlili."
- 12.Mamatqulovich K. Y. Me'da osti bezi o 'tkir va surunkali pankreatit kasalliklarini gistomorfologik tahlili //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 49-53.
- 13.Mamatqulovich K. Y. et al. Glomerulonefrit kasalligida klinik labarator tahlillarning o'rni va samaradorligi //American journal of applied medical SCIENCE. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 112-120.
- 14.Mamatqulovich K. Y., Ismatulloevich X. I., Xabibullo o'g'li C. S. Ko'kyo'tal kasalligi va uni oldini olish chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 18-21.
- 15.Mamatqulovich K. Y., Fayzullayevna R. S. Husnbuzarlar etiologiyasi, klinikasi va davolash chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 126-130.